

**ISLOMDA ILMNING MOHIYATI VA DUNYOVII VA DINIY
TURLARGA BO'LINMASLIGI TO'G'RISIDA**

*Panjiyeva Marjonaxon Ravshanovna
O'zbekiston Xalqaro Islom akdemiyasi
"Islomshunoslik" ta'lif yo'naliishi talabasi.*

Annotatsiya: Ushbu maqola inson hayotida ilmning o'rni va vazifasi qanchalik chuqur ekanligi, diniy va dunyoviy bilim asosi birligi va hozirgi kunda ilm olish yo'lida ayollarning o'rni muhimligi to'g'risidadir.

Kalit so'zlar: Qur'on, Ilm, Ilm ul-yaqin, Hadis, kitob, ayollar, farz, ta'lim, Islom, mo'jizalar, savod, firqalar, e'tirof.

Dunyo yaratilganidan buyon inson ilm olishga buyurilgandir. Ilm olish bilan har bir kishi takomillashadi va hayotda o'z o'rnni topadi. Qur'oni Karimning ilk oyatlarida:

أَقْرُأْ بِاسْمِ رَبِّكَ الَّذِي خَلَقَ

Yaratgan Robbing nomi bilan o'qi. (Alaq surasi- 1)

Ilm olishni Alloh taolo har bir erkak va ayolga farz darajasida, teng qilib tushirdi va bu dunyo miqyosida Islom dini yoyilishida muhim rol o'ynadi. Payg'ambar Muhammad (s.a.v)da garchi o'qish va yozish savodi bo'lmasada, dunyo ulamolarining sultoni maqomi berildi. Ilm ul-yaqin bu – Alloh tomonidan tanlab olingan zotlarga ato etiladi. Bu to'g'risida Qur'oni Karimda shunday deyiladi:

بِرَفَعِ اللَّهِ الَّذِينَ ءاْمَنُوا مِنْكُمْ وَالَّذِينَ اُوتُوا الْعِلْمَ دَرَجَتٌ

Alloh sizlardan iymon keltirganlarni va ilmga berilganlarning darajalarini ko'tarur. (Mujodala surasi- 11)

Alloh bunday maqom egalarini maqtash bilan birga ularni darajalarini ko'tarishi to'g'risida ham xabar bermoqda. Darhaqiqat, inson qanchalik ilm olishga ishtiyoqli bo'lsa, uning darjasasi va hurmati oshib boradi. Qur'on jamiyki ilmlarning manbasi bo'lib, unda shar'iy hukmlardan tashqari axloq odob va ta'lim tarbiya me'zonlari to'g'risida ham so'z yuritilgan. Jumladan, ilmiy mo'jizalar: Insoning dunyoga kelishi, yer tortishish kuchi (gravitatsiya), qora tuynuk, yer plitalari, tabiat va qit'alarning o'zgaruvchanligi haqida oyatlar mavjud. Qur'oni Karimda keltirilgan ilmiy mo'jizalar, oradan ko'plab asrlar o'tishiga qaramasdan o'z tasdig'ini hali hamon topib kelayotganligiga amin bo'layotgan dunyo olimlari Islom haq din ekanligi e'tirof etib, musulmon bo'layotganlari hech birimizga sir emasdir.

Islom dini har bir muslimonga ilm talabida bo'lishni farz darajasiga ko'targan dindir. Ilm olishga targ'ib qilivchi ko'plab hadislar mavjud, jumladan Rasululloh (s.a.v) marhamat qiladilar:

طَلَبُ الْعِلْمِ فَرِيضَةٌ عَلَى كُلِّ مُسْلِمٍ
(رواه الإمام ابن ماجه عن أنس بن مالاً رضي الله عنه)

ya'ni: "Ilm izlash – har bir musulmonga farzdir" (Imom Ibn Moja rivoyatlari).

Yuqoridagi hadisda har bir musulmonga farzdir deya ta'kidlanishidan murod, erkaklar bilan bir qatorda, ayollar ham ilm olishliklari joizligidir. Afsuski Islom paydo bo'lgandan buyon hanuzgacha, ba'zi bir notog'ri firqalar tomonidan "Islom dinida ayollarga oila ma'sulyati munosib, ilm olishlari joiz emas" kabi yot g'oyalar mavjud. Oilada ayol o'rni farzandlar tarbiyasida eng katta rol o'ynaydi, ammo ayol bilimsiz va savodsiz bo'lsa, u farzandlariga qanday qilib to'g'ri ta'lim va tarbiya berishi mumkin? Axir zaif ildizdan qanday qilib sog'lom va barkamol daraxt unib chiqishi mumkin? Ummatning onalari teran fikrlay olmasa, bu ummatdan olimlar chiqishini kutib bo'lmaydi. Ko'plab ulamolarning Islom taraqqiyoti uchun ko'rsatgan hizmatlarida onalarining hissalari beqiyosligi ayni haqiqat. Bunga Hadis ilmi sultonni bo'lgan Imom Buxoriy, mazhabboshi bo'lgan Imom Molik, Axmad ibn Xanbal, Muhammad ibn Idris Shofe'iy va uning ustozи Sufyon ibn U'yon kabi yetuk ulamolar misol bo'ladi. Agar ularning ilmiy faoliyatlariga nazar solinsa, ilm olishga qo'ygan biringchi qadamlari ustozlari yoki ota bobolaridan emas, balki onalari bilan birga qo'yganliklari tog'risida ma'lumotlar topiladi. Tarixda ayol olimalardan eng ko'p tilga olinadigani bu, Basrada tug'ilib o'sgan, tasavvuf ilmining yorqin vakillaridan biri bo'lgan Robiya Al-Adaviyadir (VIII asr). Uning tasavvufga rag'bati yuqori darajada bo'lganligidan, u bilan zamondosh bo'lgan olimlar uzoq o'lkalardan uning darslarini ziyorat qilganliklari to'g'risida ham ma'lumotlar bor. Manbalarda hatto mazhabboshi bo'lgan Muhammad ibn Idris Shofe'iy, Robiya al-Adaviyaning ilmini tahsinga loyiq ko'rib, uning darslarida ishtirok etganligi haqida keltiriladi. Bunday olima ayollarning hayot yo'llari hozirgi ummat ayollari uchun yorqin namuna hisoblanadi.

Hozirgi zamon taqazosi tufayli insonlar ilmni ikki qismga ajratishadi. Ilmlar dunyoviy va diniy turlarga bo'lindi. Bu qavl zohiran hozirgi davr o'zgarishlarini hisobga olib aytganda to'g'ri bo'lsada, aslida, ilm xoh diniy, xoh dunyoviy bo'lsin bir ma'noga egadir. Bunga misol tariqasida ajdodlarimizdan chiqqan buyuk olimlar; Beruniy, Xorazmiy, Zamashshariy, Ibn Sino va boshqa ulamolar faoliyatları olinsa, faqat bir sohadagina emas, balki matematika, geografiya, tabobat, astronomiya va boshqa ilmlarni o'rganish bilan bir qatorda Hadis, Qur'on va Fiqh ilmlaridan ham chuqur bilimga ega bo'lishgan. Islomiy nuqta'i nazardan qaraganda, diniy ilm olgan inson, dunyoviy ilm olgan insondan ustunlik joyi yo'q. Yoki "diniy bilim olish dunyoviy bilimdan avfzalroq bo'ladi" degan fikr ham haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Jumladan, quyidagi hadisi sharifda:

سمعت رسول الله صلى الله عليه وسلم :روى الترمذى من حديث أبي الدرداء قال
من سالك طریقاً یلتمس فيه علماء سالك الله به طریقاً إلى الجنة وإن الملائكة " يقول
لتضع أجنحتها رضا طالب العلم وإن العالم ليستغفر له من في السموات ومن في الأرض
والحيتان في جوف الماء وإن فضل العالم على العابد كفضل القمر ليلة البدر
على سائر الكواكب وإن العلماء ورثة الأنبياء وإن الأنبياء لم يورثوا ديناراً
"ولا درهما إنما ورثوا العلم فمن أخذ به أخذ بحظ وافر"

Abu Dardo' raziyallohu anhu Rasululloh sallallohu alayhi va sallamdan quyidagilarni eshitdim dedilar. Rasululloh sallallohu alayhi va sallam: "Kim ilm yo'lini tutsa, Alloh uni jannat yo'lliga yo'llab qo'yadi. Albatta, farishtalar ilm talabidagi kishiga rozi bo'lib, qanotlarini yozib turadilar.

Bunday holatda, "Payg'ambalar insoniyat g'aflatda qolmasligi uchun din ilmini dunyoga yoyib, uni xabarini berish uchun yuborilmaganmilar" degan yaqqol savol tug'ilishi mumkin. Albatta, Allohnini elchilari insoniyatga ilm berish uchun yuborilganlar. Ammo ular insoniyatga oxirat ilmidan ta'lim bergenlar. Chunki, dunyo ilmiga ega insonlar shundoq ham yer yuzida mavjud bo'lgan. Ammo payg'ambarlarga berilgan ilm o'ziga xos bo'lgan. Manashu oxirat va dunyo ilmi- din ilmining mujassamidir. Chunki din ilmida nafaqat shar'iy buyruqlar mavjud balki ota-onaga yaxshilik qilish, insonlarga yaxshi munosabatda bo'lish, ustozlarga ehtirom ko'rsatish kabilalar ham din ilmidir. Shu bilan bir qatorda matematika, fizika, tabobat va boshqa ilmlarni egallash ham aslida din ilmi hisoblanadi, garchi zohiran dunyo ilmi deb qabul qilinsa ham. Masalan, kishi tabobat ilmini egallab, insonlarga yordam bersa, ulkan ajr sohibiga aylanadi. Yoki, o'sha inson Payg'ambarga ergashgan holatda hayot kechirgan taqdirda ham ko'plab ajr-savoblarga erishgan bo'ladi.

إِنَّ مَاتَ أَبْنُ آدَمَ اُتْقَطَعُ عَمَلُهُ إِلَّا مِنْ : عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ عَنِ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ
رَوَاهُ الْخَمْسَةُ إِلَّا الْبَخَارِيُّ صَدَقَهُ جَارِيَةً أَوْ عِلْمٌ يُنْتَفَعُ بِهِ أَوْ وَلَدٌ صَالِحٌ يُذْعَوُ لَهُ تَلَاثٌ

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Nabiy sollallohu alayhi vasallam: «Qachonki odam bolasi o'lsa, amali kesiladi. Magar uch narsadan: joriy sadaqadan, manfaat oladigan ilmdan yoki uning haqqiga duo qiladigan solih farzanddan kesilmaydi», dedilar».(Beshovlaridan faqat Buxoriy rivoyat qilmaganlar.)

Darhaqiqat, inson o'zidan xoh oxirat ilmi yo'lida hizmat qilguvchi bilim, xoh boshqa bir ijtimoiy sohada foyda keltiruvchi kitob qoldirganda ham, ikkala holatda ham kishi vafotidan keyin unga savob borib turishi umid qilinadi: Yana o'sha kishidan rivoyat qilingan hadisda:

إِنَّ مَمَّا يُحَكِّمُ الْمُؤْمِنُ مِنْ عَمَلِهِ وَحَسَنَاتِهِ بَعْدَ مَوْتِهِ عِلْمٌ بِوَعْنَهُ عَنِ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ
وَنَسَرَهُ وَوَلَدًا صَالِحًا تَرَكَهُ أَوْ مُصْنَحًا وَرَثَهُ أَوْ مَسْجِدًا بَنَاهُ أَوْ بَيْتًا لِابْنِ السَّبِيلِ بَنَاهُ أَوْ تَهْرَا أَجْرَاهُ أَوْ صَدَقَةً أَخْرَجَهَا
رَوَاهُ أَبْنُ مَاجَةَ وَالْبَيْهَقِيُّ وَأَبْنُ حُرَيْمَةَ مِنْ مَالِهِ فِي صِحَّتِهِ وَحَيَاةِ تَلْحِقُهُ مِنْ بَعْدِ مَوْتِهِ

«Nabiy sollallohu alayhi vasallam: «Mo'min kishiga uning o'limidan keyin ham yetib turadigan amali va go'zal ishlaridan: sog'lik va tiriklik chog'ida o'rgatgan va tarqatgan ilmi, ortidan qoladigan solih farzandi, meros qoldirgan Qur'oni, bino qilgan masjidi, g'arib musofirlar uchun qurgan uyi, oqizgan arig'i yoki o'z molidan qilgan joriy sadaqasi bordir. Ularning savobi o'limidan keyin ham yetib turadi», dedilar». (Ibn Moja, Bayhaqiy va Ibn Huzayma rivoyat qilganlar.)

«O'rgatgan ilm» deyilganda, bevosita dars orqali ta'lim berilgan ilm ko'zda tutiladi. Demak, mo'min kishi boshqalarga ilm o'rgatgan bo'lsa, uning o'sha ilmdan oladigan ajrlari unga vafotidan keyin ham yetib turadi. «Tarqatgan ilm» jumlasiga ko'plab misollar keltirsa bo'ladi. Bularga kitob yozish, ilmiy muassasalar qurish, ularni

jihozlash, ahli ilmlarga yordam berish, turli matbuot vositalari orqali ilm tarqatish va shunga o‘xhash ishlari kiradi. Bunday ishlarni qilgan mo‘minga uning vafotidan keyin ham amalining ajri yetib turishi xabarini yuqoridagi hadisdan anglab olinadi.

Bugungi kunda har bir inson uchun ilm eshiklari doimo ochiq. Prezidentimiz tomonidan ta’kidlanganidek “Bugun kitob o’qigan bitta bola, ertaga televizor ko’rib o’tirgan o’nta bolani boshqarishi mumkin”. Shunday sharoitlar, qulaylik va imkoniyatlar mujassam bo’lgan davrda inson o’zi uchun ilm eshiklarini ochishi va o’z hayotiga teran fikr bilan nazar tashlashi kerak. Islom dini ulamolarining yorqin vakili bo’lgan Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf ta’kidlanganidek “Bir marta Buxoriylarni tarbiya qilgan bu xalq, albatta ikkinchi marta ham tarbiya qilishi oson bo’ladi”. Bu satrlar har bir yosh talaba, o’quvchilar uchun shior bo’lishi va hayotda tatbiq etilishi shart. Zero, “Bugun kitob o’qigan inson, kechagi odam emasdir”.

Adabiyotlar:

Qur’oni Karim ma’nolarining tarjimasи. Abdulaziz Mansur. 2020, Al-Jome As-Sahih. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Al-Buxoriy Tarjimon: Zokirjon Ismoil. Toshkent 1991.